



где обращение к старшему или уважительное отношение часто выражаются через другие формы. Эти различия требуют учета в процессе обучения.

#### **Методики преподавания русского языка с учетом лингвокультурных особенностей**

Методика преподавания русского языка в 9–10 классах должна включать в себя не только традиционные грамматические и лексические упражнения, но и лингвокультурные задачи, которые помогают учащимся понять и использовать язык в контексте реальной жизни. Использование лингвокультурологических материалов (например, текстов о русских праздниках, традициях и исторических событиях) способствует более полному усвоению языка и повышает мотивацию учащихся. Задания, ориентированные на изучение культурных аспектов языка, такие как анализ литературных произведений, могут значительно улучшить восприятие и понимание русской речи.

Кроме того, в преподавании важно использовать методы активного взаимодействия учащихся с русским языковым и культурным контекстом. Интеграция аутентичных материалов, таких как фильмы, песни, тексты о традициях и обычаи, позволяет углубить культурное восприятие и сделать обучение более интересным и эффективным

#### **Заключение**

Лингвокультурологический подход к обучению русскому языку в школах с узбекским языком обучения является важным инструментом для улучшения качества образования. Учет культурных различий, использование лингвокультурных материалов и создание межкультурной среды на уроках русского языка способствует не только лучшему усвоению грамматики и лексики, но и помогает школьникам более глубоко понять русский язык как часть широкой культурной традиции. Включение лингвокультурологии в методику преподавания русского языка в школах с узбекским языковым обучением открывает новые горизонты в обучении и межкультурном взаимодействии.

#### **Использованная литература.**

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учеб. пособие. – М.: Флинта: Наука, 2010. – 283 с
2. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. — М., 1997. — С. 32

### **IZOHLI LUG‘ATLARDAGI IQTISODIY TERMINLAR TAVSIFLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Almardanova Iroda Toshmamatovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

[iroda\\_almardanova@tues.uz](mailto:iroda_almardanova@tues.uz)

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbek tili izohli lug‘atlarida iqtisodiy terminlarning tavsiflarini berilishdagi O‘TIL dagi nashrlar orasidagi sohaviy terminlarning terminosistemada takomillashgani va iqtisodiy terminlarning izohli lug‘atlardagi umumiste’moldagi birlik sifatidagi farqli o‘rinlarini belgilashda ilmiy asoslandi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek tili izohli lug‘ati, sohaviy terminlar, iqtisodiy terminlar, tavsiflash, polisemiyalik, umumiste’mol birlik

### **ISSUES OF IMPROVING THE DESCRIPTIONS OF ECONOMIC TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES**

**Almardanova Iroda Toshmamatovna**

Termez University of Economics and Service

Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature

[iroda\\_almardanova@tues.uz](mailto:iroda_almardanova@tues.uz)

**Abstract:** The article scientifically substantiates the improvement of sectoral terms in the terminological system between the publications in the Uzbek language in the description of economic terms in explanatory dictionaries and the determination of the different places of economic terms as units of general use in explanatory dictionaries.



**Keywords:** Explanatory dictionary of the Uzbek language, sectoral terms, economic terms, description, polysemy, unit of general use

## **ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОПИСАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ**

**Алмарданова Ирода Тошмаматовна**  
Термезский университет экономики и сервиса  
Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы  
iroda\_almardanova@tues.uz

**Аннотация:** В статье научно обосновано совершенствование отраслевых терминов в терминологической системе между изданиями на узбекском языке при описании экономических терминов в толковых словарях и определение различных мест экономических терминов как единиц общего употребления в толковых словарях.

**Ключевые слова:** Толковый словарь узбекского языка, отраслевые термины, экономические термины, описание, полисемия, единица общего употребления

Terminologiyada tilning ijtimoiy funksiyalari sohaviy terminlar bilan bog‘liq masalalar zamonaviy tilshunoslikning muhim oldidagi vazifalarni taqozo etadi. O‘zbek tili izohli lug‘atida terminlarning tavsiflanishi bilan bog‘liq salmoqli tadqiqotlar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda, Iqtisodiy terminlarning O‘zbek tilining izohli lug‘atlarda tavsiflanishini takomillashtirish sohaviy terminlarning til imkoniyatlarini oshirish, leksik tarkibini kengaytirish leksikografik omillarini belgilaydi.

Tilda – sohaviy terminlarning ortib borayotgani shaxsning ishtiroki, iqtisodiy atamalarning vujudga kelishi, zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va o‘zgarishlar sohaviy terminologiyani qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq masalalar terminologik birliklarni chuqur o‘rganishning ahamiyatini oshiradi.

Lug‘atda birlikni tavsiflashda takomillashtirish: birlikni tanlash mezoni sanaladi. Iqtisodiy terminlarning matnlarda iqtisodiy atamalar lug‘atida birlikning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarining materialidan biri sifatida tanlanishi umumiy til, jurnalistikaning tarkibiy qismi bo‘lish uslubi sifatida kirib borishi kasbiy lug‘atni umumiy foydalanishga aylantiradi.

Sohaviy lug‘atlarni terminologiya jarayonlarida tavsiflash tilda insonning ishtiroki darajasi oshishi bilan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiyot madaniy tarkibiy qismga aylangan. Bu leksik birliklarning ko‘chishining sabablaridan biridir. Tilning terminologik qatlamidan umumiy tilga o‘tishi lug‘at tizimidagi ko‘pgina tavsiflashga doir amaliy ishlarni taqozo etadi.

O‘TILda iqtisodiy terminlarni tavsiflashda lug‘atning ikki tomli nashrida berilgan iqtisodiy terminlar miqdori kam bo‘lgan. Chegaralangan qatlam leksikasi uchun berilgan uslubiy belgilar izohlanuvchi birlik haqida muhim axborot yetkazuvchi lug‘at unsuri. Ya’ni bosh so‘zning qaysi sohaga oid yoki qaysi uslubda qo‘llanishi haqida izohda uzundan uzun gapirish zaruratini yo‘qotadi. Uslubiy xarakteristika lug‘at birliklariga beriladigan izoh – lug‘at maqolasini ixchamlashtirishga yordam beradi [3].

O‘TILning ikki tomli nashrida iqtisodiy terminlar shartli belgi sifatida *ek.* – ekonomika, iqtisodga oid termin deya izohlanadi. 2006-yildagi nashrida esa *iqt.* – iqtisodiyotga oid termin shartli qisqartmalar ro‘yxatida berilgan.

Zamonaviy tilshunoslikdagi termin tizimlarini tavsiflashda linvokognitiv yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. U terminologiya qanday qilib jamiyatda shakllangan olam haqidagi ilmiy tasavvurlarini aks ettirishini va tushunchalar, ya’ni predmetlar va hodisalardagi asosiy tavsiflarni ikkinchi darajalaridan alohida ajratib olish asosiy tavsiflarni ikkinchi darajalaridan alohida ajratib olish asosida yuzaga keladigan mantiqan anglandigan konseptlar bilan qanday ishlashini aniqlash imkoniyatini berdi [1]. Sohaviy terminlarning leksik qatlamdagi lingvokognitiv jihati shuni ko‘rsatadiki, O‘TIL dagi tavsifiga konseptlar asosida yondashilgani o‘rinlidir. Bu esa tadqiqotimiz davomida bugungi davr talabi bo‘yicha sohaviy terminlarning leksikografiyadagi amaliy jihatdan takomillashtirish jarayonlarini qamrab oladi.

Turkiy tillar tarixida qo‘llangan iqtisodiy terminlar tahlili o‘zbek turkshunosi H.Dadaboyevning monografiyasida batafsil tahlilga tortilgan. Unda iqtisodiy terminlar tarixiy-etimologik aspektida o‘rganib chiqilgan [2].

Zamonaviy turk tilidagi terminlarning muayyan qismi arab, fors va qator yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi. Arab va forsha o‘zlashma so‘zlar asosan an‘anaviy oldi-sotdi shakllarini



ifodalaydi, yevropa tillaridan o‘zlashtirilganlari esa “moliya” tushunchasi atrofidagi iqtisodiy munosabatlar turini modellashtirgan [1].

**Bozor 4.(forscha-tojikcha) Ek.-Tovar, mol almashinuv sferasi. Ichki bozor. Tashqi bozor. Jahon bozori [4].**

O‘TILning 5 jildlik va 6 jildlik nashrida ham shu tarzda izohlanadi.

**Bozor 4 iqt.** Sotuvchilar bilan xaridorlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlari. Jahon bozori. Tashqi bozor. Ichki bozor. Bozor islohatlari. Bozor xo‘jaligi. Bozor ishtirokchilari tovar va xizmatlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan munosabatga kirishadilar. “O‘zME”. Dunyo bozorida terilarimizning narxi tushmasa deyman. S.Ahmad, Yulduz. [5]

Bunda II jildlik lug‘atda fors, arab, tojik tillardan o‘zlashgan terminlar izohlansa, mustaqillik yillarida nashr etilgan 5 jildlik va 6 jildlik nashrlarida yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlardir.

**Amortizatsiya** [lot. amortisatio-qoplash] 1 iqt. Mehnat vositalarining (mashina, jihoz, bino va sh.k) eskirishiga qarab, ular qiymatini muayyan davr mobaynida ishlab chiqarilayotgan mahsulot ustiga qo‘ya borish, shu yo‘l bilan eskirgan vositalar bahosini qoplash [5]. O‘TILning 5 jildlik va 6 jildlik nashrlarida iqtisodiy termin sifatida izohlangan. II jildlik lug‘atda esa ekonomika pometasi berilmay izohlanib ketilgan: **Amortizatsiya** 1 [Ruscha-lotinch] mashina, asbob-uskuna, mulk, bino va shu kabi – ularning bahosini kamaytira borish, ularning shu chegirilgan qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot ustiga qo‘ya boorish. Amortizatsiya muddati. Amortizatsiya kapitali. Amortizatsiya qilmoq.[4]

**BONUS** lotincha.bonus-yaxshi, marhamatli iqt. Turli xil munosabat bilan beriladigan qo‘shimcha haq (mukofot, ustama, qo‘shimcha dividend va b.) *Biroq kimdir bonusga ega bo‘lsa, boshqa biron bergan pulini ham qaytarib olamaydi. Ayniqsa, so‘nggi kunlarda jalb qilingan fuqarolarga hech qanday bonus berilmagan. Gazetadan.*[4]

II jildlikda yo‘q 5 jildlik O‘TIL da bu termin huquqqa, huquqshunoslikka oid termin sifatida izohlanadi.

**BONUS** lotincha. bonus-yaxshi, marhamatli huq. Turli xil munosabat bilan beriladigan qo‘shimcha haq(mukofot, ustama, qo‘shimcha dividend va b.) to‘lash [5]. Berilgan O‘TILdagi iqtisodiy terminlarni tavsiflashda 2 jildlikdan, 5 jildlik, 6 jildlik nashrlarida qayta ishlanishida o‘zbek tili leksik qatlam tamoyillariga so‘zning konseptiga ham tayanilganini ko‘ramiz.

O‘TIL dagi 2 jildlikdan, 5 jildlik, 6 jildlik nashrlarida tadqiqotimiz davomida iqtisodiy terminlar izohida iqtisodiy termin pometasining berilishida ko‘p ma’ nolilikda iqtisodiy terminni birikma holda berish ham o‘rinlidir:

Ayirboshlash 1 Ayirboshlash fe‘l harakat nomi

2 iqt. Kishilarning mehnat faoliyati yoki mahsulotlarini o‘zaro almashtirishlari. [6]

Aylanmoq 1 O‘z o‘qi yoki biror narsa tevaragida harakat qilmoq, aylana bo‘ylab davra olib yurmoq.

4.iqt. Muamolada bo‘lmoq, yurmoq. Pulning aylanishi.[6]

Boshqarish 1 Boshqarmoq fl.majhul n. Xo‘jalikni boshqarish. Oilani boshqarish.

2 iqt. Xo‘jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni.

*Boshqarishning iqtisodiy usuli. Boshqarishning ma‘muriy usuli.* [5]

**BOSHQARISH** 1 Boshqarmoq fe‘l harakat nomi Xo‘jalikni boshqarish.Oilani boshqarish.

2 iqt. Xo‘jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni.

*Boshqarishning iqtisodiy ma‘muriy usuli.* [6]

**TAQCHILLIK** 1 Yetishmaslik holati, taqchil hol. Yog‘och, taxta taqchilligi. – Respublikamiz sug‘orma dehqonchiligida ma‘lum darajada suv taqchilligi sezilib turadi. “Fan va turmush”

2 iqt. ilgari belgilangan rejalashtirilgan yoki zarur darajadagi mablag‘, resurs, tovarlarning yetishmasligi, tanqisligi; defitsit. *Tovarlar taqchilligi. Byudjet taqchilligi.*[6]

**TAVAKKALCHILIK** 1 tavakkal bilan ish tutish, tavakkal ish. *Bilimsiz tajribasiz bolalarni mening qarshiligimga qaramay, qaltis tavakkalchilikka boshlagan siz emasmi edingiz? A.Muxtor, Tug‘ilish. Buyuk ishlarning ko‘pchilligi tavakkalchilik bilan qo‘lga kirgan, buni inkor qilib bo‘lmaydi. J.Abdullaxonov, To‘fon.*

2 iqt. Foydadan mahrum bo‘lish va boshqa sabablarga ko‘ra zarar ko‘rish singari yomon oqibatlar ro‘y berish ehtimoli. *Tavakkalchilikka aoslangan o‘yinlar.* [6]

Iqtisodiy terminlarning o‘ziga xos jihatlari asoslagan holda polisemiyaalikdan holi ifodalash uchun umumiste‘moldagi birlik sifatidagi shakliga ham e‘tibor qaratgan tarzda sohaga oid termin sifatida qo‘llanishda birikma holdagi izohi berilishi joiz deb hisoblaymiz. Bu o‘quv lug‘atchiligida hamda sohaviy terminlarning qo‘llanishida lingvodidaktik aspekt sifatida omil bo‘lishini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**



1. Абдирашева А. Замоновий турк тилидаги иктисодий терминларнинг лингвокогнитив таҳлили – филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2019. Б. 41
2. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV. – Ташкент, 1991.
3. Сабирова Эзоза ШУХРАТ ҚИЗИ “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши Тошкент – 2021 **107-108 б 180.]**
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдлик. Москва. Рус тили, 1981.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдлик. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
6. O‘zbek tili izohli lug‘ati. 6 jildlik. Toshkent. G‘afur G‘ulom, 2022.

## **“BOBURNOMA” ASARIDAGI MURAKKABLASHGAN GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI**

**Abdazova Gulsanam Inomjon qizi**  
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy voqealarni hujjatlashtiradi, balki muallifning ichki kechinmalari, shaxsiy psixologik holatlari va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan murakkab sintaktik tuzilmalar vositasida tasvirlaydi. Bobur o‘z asarida arabcha va forsha grammatik matnlardan, sintaktik parallelizm, bog‘langan va ergashgan gaplar kabi konstruksiyalardan keng foydalangan bo‘lib, ushbu uslubiy xususiyatlar uning o‘ziga xos nutq madaniyatini namoyon etadi. Ushbu tezisda asarda qo‘llangan murakkab qurilmalar, muallif uslubining grammatik xususiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** “Boburnoma”, sintaksis, sintaktik tahlil, Grammatik qurilma, murakkab qurilmalar, murakkablashgan sodda gap, murakkablashgan qo‘shma gap.

## **СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БАБУР-НАМЕ»**

**Аннотация.** Произведение Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» представляет собой не только ценный исторический источник, фиксирующий события своего времени, но и выдающийся образец авторской речи, насыщенной сложными синтаксическими структурами. Посредством данных конструкций автор раскрывает внутренние переживания, психологические состояния и эстетические воззрения. В тексте широко используются элементы арабской и персидской грамматической традиции, синтаксический параллелизм, а также сложносочинённые и сложноподчинённые предложения, что свидетельствует о высоком уровне речевой культуры Бабура. В настоящем исследовании проводится анализ синтаксической организации сложных предложений в «Бабур-наме» и выявляются грамматические особенности авторского стиля.

**Ключевые слова:** «Бабур-наме», синтаксис, синтаксический анализ, грамматическая конструкция, сложные структуры, осложнённое простое предложение, осложнённое сложное предложение.

## **SYNTACTIC ANALYSIS OF COMPLEX SENTENCES IN THE WORK BABURNAMA**

**Annotation:** Zahiriddin Muhammad Babur’s *Baburnama* serves not only as a valuable historical record documenting the events of its time but also as an outstanding example of the author’s linguistic artistry, characterized by the use of complex syntactic structures. Through these constructions, Babur reveals his inner emotions, psychological states, and aesthetic perceptions. The text demonstrates extensive use of Arabic and Persian grammatical traditions, syntactic parallelism, and both compound and complex sentences, all of which reflect the author’s refined speech culture. This study analyzes the syntactic organization of complex sentences in the *Baburnama* and identifies the grammatical features that define Babur’s unique stylistic manner.

**Keywords:** Baburnama, syntax, syntactic analysis, grammatical structure, complex constructions, complicated simple sentence, complicated compound sentence.